



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinatal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	

JADID MA'RIFATPARVAR- LARINING BOSHLANG'ICH TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK FAZILATLARI VA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK TAJRIBALARI

Ahmadov Olimjon Shodmonovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Fayzilova Mohinur Azamhon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
70110401 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida maorif, ta'lim-tarbiyaning jonkuyar fidoiylari bo'lgan F. Xo'jaev, A. Fitrat, Q. Y. Po'latov, Atoulla Xo'ja, Said Ahroriy kabilar boy moddiy va ma'naviy madaniyatimizni rivojlantirish, o'tmishdan qolgan ma'naviy boyliklarimizni asrash, kelajak avlodlarga yetkazishga o'z kuch-qudratlarini, bilim va salohiyatlarini sarflaganlari yoritilgan. Markaziy Osiyo jadidchilik harakati vakillarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy mavqeini yanada yuksaltirish hamda Turkiston o'lkasida savodsizlikni tugatish yo'lidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, ularning yangi darslik va adabiyotlarni yaratishdagi faoliyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadid, yangi, Ikozu-n-noimin va elomu-l-johilin, Uyg'ongan tushlar va bilimdon johillar, F. Xo'jaev, A. Fitrat, Q. Y. Po'latov, Atoulla Xo'ja, Said Ahroriyning inqilobiy o'zgarishlar davridagi o'ziga xos dasturi, "eski" (qadimchi) va "yangi" (jadid) ziddiyatiga bag'ishlangan, Hind sayyohi (Buxoro, shunday) qissalari.

Abstract: In this article, F. Khodjaev, A. Fitrat, K.Ya. Polatov, Atullah Khodja, and Said Akhrori, who were passionate supporters of pedagogical education during the years of the Bukhara People's Soviet Republic, developed our rich material and spiritual culture. They spent their energy, knowledge, and potential to preserve the spiritual wealth inherited from the past and pass it on to future generations. In order to further enhance the socio-political, cultural, and everyday status of representatives of the Central Asian Jadidist movement, it was revealed that their efforts to eliminate illiteracy in Turkestan consisted of creating new textbook literature.

Key words: new, Ikozu-n-noimin and elomu-l-johilin, Waking dreams and learned ignorant people, F. Khojaev, A. Fitrat, Q.Y. Polatov, Atoulla Khoja, Said Ahrari's unique program during the period of revolutionary changes, dedicated to the conflict between the "old" ("antiquity") and the "new" ("Jadid"), Indian tourist (Bukhara, so) stories.

Аннотация: В этой статье Ф. Ходжаев, А. Фитрат, К. Я. Полатов, Атулла Ходжа, Саид Ахрори, которые были страстными приверженцами педагогического образования в годы Бухарской Народной Советской Республики, развивали нашу богатую материальную и духовную культуру. Они потратили свою энергию, знания и потенциал, чтобы сохранить оставшееся нам духовное богатство и передать его будущим поколениям. В целях дальнейшего повышения общественно-политического, культурного и бытового статуса представителей среднеазиатского джадидистского движения выявлено, что их усилия по ликвидации неграмотности в Туркестане заключались в создании новой учебной литературы.

Ключевые слова: новое, Икодзу-н-ноймин и элому-л-джохилин, Мечты наяву и учёные невежественные люди, Ф. Ходжаев, А. Фитрат, К. Ю. Полатов, Атулла Ходжа, Саид Ахрари, уникальная программа периода революционных изменений, посвящённая конфликту между "старым" (античным) и "новым" (джадид), Индийский турист (Бухара, то есть) рассказы.



KIRISH

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar, milliy uyg'onish davrining asosini tashkil etgan jadidchilik harakati o'zining tub mohiyati bilan ma'rifat-parvarlik g'oyalari tayanadi. Bu davrning yorqin namoyandalari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi jadid ma'rifatparvarlari xalqni jaholatdan qutqarish, uni taraqqiyot yo'lga olib chiqishning yagona yo'li ilm-ma'rifat ekanligini teran anglab yetgan edilar. Ularning pedagogik faoliyatida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilat-lari va madaniyatini shakllantirish masalasi markaziy o'rin tutgan.

Jadidlar uchun kitob shunchaki axborot manbai emas, balki shaxsni kamol toptiruvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, axloqiy qadriyatlarni singdiruvchi va milliy o'zlikni anglatuvchi muqaddas vosita edi. Ular o'zlarining "usuli jadid" maktablarida o'quvchilarni yoshligidanoq kitobga oshno qilish, ularda mutolaaga nisbatan muhabbat uyg'otish va mustaqil fikrlashga undashga katta e'tibor qaratganlar. Ushbu kirish qismida jadid ma'rifatparvarlarining ana shunday pedagogik tajribalari, ular tomonidan ishlab chiqilgan usullar, yozilgan darsliklar va ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Ushbu tadqiqot jadidlarning boy merosini zamonaviy pedagogika uchun qanday qilib samarali qo'llash mumkinligini ochib berishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan kitobxonlik muammosiga yechim topishda muhim hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilat-lari va madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon hamda hozirgi zamonaviy tadqiqotchilar O. Safarov, D. O'rayeva, I. Jabborov, O. Sh. Ahmadov kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy ishlarida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlari va marosim folklorida xalqning axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi hamda ma'naviy qadriyatlari aks etishi ilmiy asoslangan. Mazkur manbalar tarbiya darslarida mifologik materiallardan foydalanishning mazmuniy bazasini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalar va tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari bo'yicha R. A. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, milliy tarbiya, pedagogik shart-sharoitlarni yaratish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim jarayonining samaradorligi o'qituvchi kompetensiyasi, metodik yondashuv va o'quvchining faol ishtirokiga bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tarbiya darslarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslash maqsadida tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellastirish hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga oid falsafiy, pedagogik, psixologik va madaniy manbalar o'rganilib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy-ma'naviy meros manbalari hamda pedagog olimlarning tarbiyaga oid ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning zamonaviy tarbiya darslari mazmuni bilan uyg'unligi qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, o'quvchilarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy tafakkur, obrazli va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda mifologik materiallardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moddiy va ma'naviy madaniyatimizni rivojlantirish, zamon talablari darajasida ilmiy-texnik mutaxassis-larga va ziyolilarga ega bo'lish yo'lida ibratomuz amaliy qadamlar qo'yilgan edi. Buxoro Respublikasi hukumati dastlabki kunlaridanoq asrlar osha avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan nodir qo'lyozma kitoblarni to'plash, osori-atiqalarni asrash, ularni mamlakat hududidan olib chiqib ketilishiga yo'l qo'ymaslik kabilarga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rdi. 1920-yil 17-sentyabrdagi Buxoro Nozirlar Sho'rosining buyrug'ida: "Butun Buxoro mamlakatidagi eski hukumat ma'murlaridan qolg'on (amir davridan) eski va yangi kitoblar maorif nazoratiga topshiriladur. Shu kitoblarni ko'rmak yoki sotib olmoqchi bo'lg'onlar maorif nazoratidan ijozat olmoqlari kerakdur. Xususiy kishilarda eski kitoblari bo'lib, sotmoqchi bo'lsalar, chetga chiqarmasdan maorif nazoratiga keltirib, o'z oqchasini olsunlar va shul yuqoridagi yozuvlarga qarshi kelganlarga jazolar ila hukmga beriladur", - deb yozilgandi.

Hukumat o'tmishdan meros bo'lib qolgan madrasalarga, kitob va o'quv-yozuv jihozlariga, osori-atiqalarga egalik qilish, ularni bir joyga to'plash vazifasini maorif nazorati zimmasiga yuklab qo'ygan edi. Hatto, o'lka maorifi va madaniyatiga oid osori-atika hamda san'at asarlarini to'plash, ro'yxatga olish maqsadida Maorif nozirliqi qoshida maxsus "Tarixiy osori-atika sho'basi" tashkil qilingan edi.

Maorif nazoratining shaxsan nozir boshchiligidagi ushbu sho'bası g'ayrat bilan ikki yil davomida ishladi. Buxoroning boy va qadimiy madaniyatini dunyoga tanitish, Sharq va G'arbning o'nlab mamlakatlari bilan madaniy hamkorlik aloqalarini o'rnatib, muzey va san'at asarlarini dunyo ko'rgazmalarida namoyish qilish hukumatning istiqbolli rejasida bor edi.

Buxoro Xalq Respublikasi Maorif nozirligi shu masalaga juda jiddiy munosabatda bo'ldi. Mazkur nozirlikning 1920-yil 20-dekabrda buyrug'idan: "Agar Buxoroning o'lka madaniyatiga oid osori-atıqa va san'ati nafisa asboblari bo'lsa, maorif nazoratidagi tarixiy osori-atıqa sho'basiga keltirib topshursinlar, maorif nazorati har asbobning qimmatiga qarab pulini beradur. Bundoq asbobning qo'ldan qo'lg'a o'tib sotilib yurilishi qat'iy mumkin emas! Chetga chiqarmoq ham qat'iy mumkin emas!" mazmundagi fikrlarni o'qiymiz.

1922-yil 8-noyabrda Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining sobiq binosida birinchi muzey ochilib, bu respublika madaniy hayotida juda katta tarixiy voqea bo'lgan edi.

Umuman, Buxoro Respublikasi hukumati maorif va madaniyat masalasiga: "Maorif kerak, chunki hech bir mamlakat, hech bir millat, hech bir inqilob maorifsiz yashamas, o'qimoq uchun maktab kerak, maorif kerak, kitob kerak - bu haqiqat", tarzida qaradi.

Buxoro Xalq Respublikasi hukumati Buxoroda maktab ochish, ularni o'qituvchilar bilan ta'min etish, maktab anjomlari, qalam, qog'oz va boshqa narsalarni keltirish, o'qituvchilar tayyorlash chora-tadbirlarini ko'rdi. Maorif tizimida: "Har bir kuch bilim uchun!", "Barcha narsa bilim uchun!" kabi shiorlar o'rtaga tashlandi.

Buxoro shahrida muallimlar tayyorlov kurslari tashkil qilinib, amirlik zamonida mudarrislik bilan shug'ulangan shaxslarning bilim va tajribasidan foydalanish usul-choralari ham ko'rildi.

Buxoro Respublikasi hukumati ommaviy savodsizlikni tugatish, erkaklar bilan birga mahalliy xotin-qizlarni ham savodli qilish, ular orasidan muallimlar yetishtirish tadbirlarini ko'rdi. "Eski Buxoroda yerli xotin-qizlardan muallimlar yetishtirmak uchun 6 oylik ta'lim-tarbiya kurslari ochildi. Yerli (mahalliy) xotin-qizlarning bu kursga rag'bat-e'tiborlari zo'rur", - deb xabar bosilgandi "Buxoro axbori"da.

Jamiyatdagi qoloqlikni tugatish, xotin-qizlarni ma'rifatli qilish, ularni o'qitish, harf tanitish uchungina emas, ayni paytda ma'rifatli onalar vositasi bilan aqliy va jismoniy barkamol farzandlarni tarbiyalash, oila ma'naviyati va asosini mustahkamlash kabilar ko'zda tutilgan. "Xotin-qizlarimizni ilm va maorif nurlari bilan nurlantirmak va ularni haqiqiy murabbiya etmak uchun tirishmak eng muhim vazifadur".

Muallimlar tayyorlov kurslarida tahsil olayotgan shaxslar 6 oydan keyin maxsus imtihondan o'tib, Buxoro Respublikasi viloyatlari bo'ylab tarqalib ketardilar. 1922-yilda Buxoro shahridagi muallimlar tayyorlash kursini tamomlagan 52 nafar talaba imtihondan o'tib, shulardan 3 nafari Sherobodga, 4 nafari Qarshiga, 2 nafari Qorako'lga, 3 nafari esa (2 nafari musiqa muallimi) Karkiga ma'rifat tarqatish uchun yuborilgan. Ular joylardagi 3 oylik savodsizlikni tugatish kurslarida muallimlik qilishgan. Muallimlar tayyorlov kurslari Chorjo'y va Shahrisabz shaharlarida tashkil qilingan.

Respublikaning to'rtinchi yilida, 1924-yilda 60 dan ortiq boshlang'ich, ixtisoslashgan va o'rta maktablar mavjud bo'lib, ularning 2 tasi xotin-qizlar maktabi, shu bilan birgalikda xotin-qizlar uchun savodsizlikni tugatish kursi (3 oylik), 6 oylik muallimlar kursi ham mavjud bo'lgan. Ma'lumotlardan birida: "1923-1924-o'quv yilida Buxoroda hammasi bo'lib 90 ga yaqin o'quv yurti bor, ularning 31 tasi davlat byudjetidan, qolganlari mahalliy byudjetlardan ta'min etiladur".

Buxoro Respublikasi zamonaviy mutaxassislarga ega bo'lish maqsadida dunyoning rivojlangan mamlakatlariga o'quvchi va talabalar yuborish to'g'risida ham qayg'ura boshladi. Boshlang'ich ta'lim yoshlarga singdirilgan, ularga dunyoviy ilmlardan dastlabki bilimlar berilgan, endigi vazifa esa 1922-yildan boshlab Buxoro farzandlarini Turkiya, Germaniya, Yaponiya, Ozarbayjon, Boshqirdiston, Rossiya, Turkiston ASSR o'quv dargohlarida o'qitish orqali xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislar bazasini shakllantirish edi.

Buxorolik o'quvchi va yoshlar Germaniyaga yetib kelganidan keyin ularni bu mamlakatda yaxshi kutib olishgan. Buxorolik talabalar 6 oy davomida nemis tilini o'rgandilar. 10-14 yashar bolalar nemis oilalariga joylashtirildilar. Bu haqda Berlin Dorilfununining talabasi Sattor Jabbor: "Har qanday nemis bizni o'z oilasiga qo'shib olish uchun eshiklarini ochib qo'ydi. Oddiy muallimdan boshlab, doktori, professori til o'rganishimiz uchun qo'ldan kelgan yordamini ayamadi.

Germanlar dunyoni sevganlari kabi Turkistonga ham juda qiziqqanlardan ekanlar. Ko'zimiz bilan ko'rganimiz uchun bu yerda ochiq aytishimiz kerakki, ular mamlakatimizni, tariximizni, istiqbolimizni bir turkistonlikdan ortiq biladurlar, taniydurlar. Yurtimiz to'g'risida biz uchun eng muhim bo'lg'on kitoblar yozib, boshqa tillarda ham tarjima qilg'onlar", - deb iliq fikrlarni bildirgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim sohalarini rivojlantirish uchun imkon qadar amaliy harakatlar qilindi. Xorijda o'quvchi va talabalarni o'qitish orqali xalq xo'jaligini zamonaviy mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Mazkur jarayon samaradorligi ta'lim mazmunini milliy madaniy meros bilan boyitish, pedagogning metodik kompetentligini oshirish, interfaol pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda zamonaviy tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. - 2020. - T. 10. - №. 12. - S. 1224-1227.
2. Elova, Dilnoza, and Olimjon Ahmadov. "Bukhara from the history of the events of the organization of the air fleet of modern new technology and the introduction of aircraft." E3S Web of Conferences. Vol. 515. EDP Sciences, 2024.
3. Ahmadov O. Buxoro amirligida yangi usul maktablari faoliyati. Yutuqlari va muammolar //Sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
4. Axmedov O. Sh. Obrazovanie v buxarskom emirate (na osnove jizni i tvorchestva praviteley) //Voprosy nauki i obrazovaniya. - 2021. - №. 6 (131). - S. 10-13.
5. Ahmadov O. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-YILLAR) //Sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
6. Ahmadov O. XIX asr oxiri-XX asr birinchi choragida Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimining manbaviy asoslari va adabiyotlar tasnifi //Sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). - 2020. - T. 4. - №. 4.
7. Ahmadov O. Sh. Molodej, vlast, общество: проблемы i perspektivy vzaimodeystviya.
8. Olimjon A. buxoroda yangi usul ta'lim-tarbiya muassasalarining tashkil topishidagi jadid ma'rifatparvarlarining o'rni //Sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). - 2023. - T. 30. - №. 30.
9. Khasanov, Ahmadov O. Sh. "MAhmudxo'ja Behbudiy – Turkiston jadidchilik harakati yo'l boshchisi." Models And Methods For Increasing The Efficiency Of Innovative Research 2.21 (2023): 143-150.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.